

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«Kasb ta'limi va pedagogika» kafedrası

**«KASB TA'LIMI METODIKASI»
fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha**

U S L U B I Y K O ' R S A T M A

QARSHI – 2013 y.

Ushbu uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti 5 140900 - Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlarish va ta'mirlash) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash saviyasi va mazmuniga majburiy talablariga asosan tuzilgan. Unda «Kasb ta'limi metodikasi» fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha barcha tafsilotlar batafsil yoritilgan.

Uslubiy ko'rsatma 5 140900 - Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlarish va ta'mirlash) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan 4-kurs talabalariga mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

«KT va P» kafedrası
katta o'qituvchisi N.I.Amirov

Taqrizchilar:

Qar DU «Umumtexnika fanlari »
kafedrası dotsenti G.Ishmuradova

«KT va P» kafedrası mudiri,
dotsent Z.L.Botirov

Mazkur uslubiy ko'rsatma «Kasb ta'limi va pedagogika» kafedrası yig'ilishida (Bayon № 1__ 26. 08.____2013 y.) «Kasb ta'limi» fakulteti uslubiy Komissiyasi (Bayon № 1__ 29. 08.____2013 y.) yig'ilishida hamda institut uslubiy Kengashi (Bayon № 1/2__ 3. 09____2013 y.) yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mustaqil Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida bugungi kun talablariga javob beradigan yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi-murabbiylarning xizmatlari katta. Aynan shu maqsadlarni ro'yobga chiqarishda, talabalarni bo'lajak muhandis-o'qituvchi bo'lib shakllanishida «Kasb ta'limi metodikasi» fanining vazifasi nihoyatda muhim, chunki pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotni bilishga, mehnatga tayyorlash uchun xalq va davlat oldida javob beradigan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadigan, shuningdek bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Bo'lajak muhandis-pedagoglarga «Kasb ta'limi metodikasi» fanini o'qitilish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, ushbu fanni o'rganishdan maqsad talabalarni kasb-hunar kollejlarida pedagogik faoliyat olib borishga tayyorlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun faqatgina fanning nazariyasini chuqur bilish kifoya qilmaydi, balki pedagogik mahorat sirlarini ham mukammal egallash talab etiladi. Pedagogik faoliyat talaba shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga qaratilgan ko'pgina masalalarni echish jarayonidir. Har bir o'qituvchi pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasıl izlanishi bilimini, mahoratini oshirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarda to'g'ri va oqilona yondashib, o'z faoliyatini nazorat qila bilishi lozim.

Demak, talabalarga «Kasb ta'limi metodikasi» fanining o'tilishi va kurs ishini bajarilishi ularda pedagogik qobiliyatini shakllantiradi, shuningdek, ular pedagogik mahorat qonuniyatlari, pedagogik mahorat egallash yo'llari va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar. 5 140900 - Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash) ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari «Kasb ta'limi metodikasi» fanidan kurs ishi bajaradilar. Kurs ishi talabaning fan bo'yicha o'quv jarayonida to'plagan nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotga qo'llashga o'rgatadi.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalarining kurs ishlariga qo'yiladigan asosiy talablar, kurs ishining tarkibi, uni bajarishga oid ko'rsatmalar batafsil yoritilgan.

Uslubiy ko'rsatma 5 140900 - Kasb ta'limi (Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash) ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

Kurs ishining mavzulari

1. Kasb-hunar ta'limida dars mashg'ulotlarining shakllari, metodlari.
2. Kasb-hunar ta'limida aniq kasb bo'yicha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.
3. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash.
4. Kasb-hunar ta'limida maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar-dan unumli foydalanish shakl va metodlari.
5. Kasb-hunar ta'limi darslarini samaradorligini oshirish texnologiyasi.
6. Kasb-hunar ta'limi darslarida o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik asoslari.
7. Kasb-hunar ta'limi darslarida mustaqil o'qitish usullarini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari.
8. Kasb-hunar ta'limining didaktik tamoyillari.
9. Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari.
9. KHK larda bajariladigan ishlarni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilish.
10. Kasb-hunar kollejlarda "Krivoship-shatunli mexanizmlarning tuzilishi va ishlashi" mavzusini o'qitish metodikasini ishlab chiqish.
11. Kasb-hunar kollejlarda "Gaz taqsimlash mexanizmlarining tuzilishi va ishlashi" mavzusini o'qitish metodikasini ishlab chiqish.
12. Kasb-hunar kollejlarda "Avtomobillarning tormoz tizimlarining tuzilishi va ishlashi" mavzusini o'qitish metodikasini ishlab chiqish.
13. Kasb-hunar kollejlarda "Dvigatellarning ta'minlash tizimlarining tuzilishi va ishlashi" mavzusini o'qitish metodikasini ishlab chiqish.
14. Kasb-hunar kollejlarda mashg'ulotlar ta'lim texnologiyasining modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqish.
15. Pedagogik mahoratni oshirish usullari.
16. Masofaviy o'qitish jarayoni va uning afzalliklari.
17. O'quv jarayonida nazoratning o'rnini va roli.
18. Ma'ruza va unga qo'yiladigan talablar.
19. Ta'lim mazmuni, metodlarini o'quvchilarning yoshiga, imkoniyat va qiziqish-lariga qarab tanlash.
20. O'quv jarayonida turli pedagogik uslublarni qo'llash.
21. Didaktika-ta'lim nazariyasi va amaliyoti asoslarini o'rganuvchi bo'lim sifatida.
22. Pedagogik boshqarish tushunchasi.
23. Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish.
24. Muhandis-pedagog kadrlar tayyorlashda qo'yiladigan asosiy talablar.
25. Ilmiy dokladlar tayyorlash, referatlar tayyorlashning meyyorlari.

Kurs ishini bajarishning maqsad va vazifalari

Kurs ishi – oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarning fan bo'yicha yakuniy ijod mahsulidir.

Kurs ishini bajarishning maqsadi va vazifalari:

-fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni kasb-hunar kollejlarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida qo'llashga o'rgatish;

-ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan mavzuning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga etkazishgacha bajariladigan ishlarga nisbatan ma'suliyatni his etishga o'rgatish;

-zamonaviy ta'lim berish, ishlab chiqarish, fan va texnikaning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga jalb etish;

-kasb-hunar kollejlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, o'qitish modellari va metodlarini hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbqiq qilish masalalarini ishlab chiqish.

Kurs ishiga qo'yiladigan talablar

Talaba o'zining kurs ishida fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini qo'llagan holda tugallangan kasbiy masalani echadi. Unda talaba quyidagilarni hal etishi lozim:

- masalani echishda uning mazmunini tahlil qila olishi va tushuntirib berishi;
- tanlangan mavzuning maqsadi, vazifasi, mazmuni va dolzarbligini yoritishi;
- ilmiy-uslubiy, texnik talablarni ifodalashi, masalaning turli echimli variantlarini ko'rib chiqishi va eng maqbul variantni aniqlashi;
- masalaning echimi natijalariga asoslanib, tegishli bilim tarmog'iga xulosalar va tavsiyalar berishi lozim.

Ishni bajarishda talabadan qo'yidagilar talab qilinadi:

1. Kurs ishining mavzusini tanlash;
2. Kurs ishini bajarish yuzasidan topshiriq olish;
3. Tanlangan mavzu bo'yicha ma'lumot to'plash, tahlil qilish.
4. Mavzuning maqsadi, vazifasi, mazmuni va dolzarbligini yoritish.
5. Kurs ishi bo'yicha kompleks pedagogik, metodik va texnik echimlarni ishlab chiqish (nazariy, laboratoriya-amaliy va o'quv amaliyoti mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi modeli hamda texnologik xaritasini ishlab chiqish, vizual materiallar tayyorlash, taqdimot slaydlari tayyorlash).

6. Ishlab chiqilgan metodik ishlanmani ta'lim jarayonining sifat va samaradorligiga ta'sirini umumiy tarzda baholash.

7. Bajarilgan ish natijalariga xulosa va takliflar berish, uni kasb-hunar kollejlarining o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning ahamiyatini ko'rsatish.

8. Kurs ishini aniq tanlangan mavzu bo'yicha bajarish.

9. Kurs ishini har bir talaba mustaqil ravishda o'zi bajarishi, uning sifati va topshiriqqa mosligi uchun javob berishi;

10. Kurs ishini imlo xatolarisiz, tushunarli husnixatda, yo'nalishning xususiyatlari asosida kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan kurs ishini bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatma asosida rasmiylashtirish.

11. Kurs ishini bajarilishi bo'yicha belgilangan muddatlarda rahbarga hisobot berib borish, tug'ilgan muammo va savollar bilan murojaat qilish, maslahatlar olish.

12. Belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilgan kurs ishini himoyadan oldin rahbarga ko'rsatish, kamchiliklar aniqlangan hollarda ularni tuzatish.

Kurs ishi talabalar tomonidan o'quv rejada ajratilgan vaqt ichida (fan bo'yicha yakuniy nazoratgacha) bajariladi. Ayrim hollarda kurs ishi ishlab chiqarish korxonalarida, kasb-hunar kollejlarida ham bajarilishi mumkin.

Kafedraning tavsiyasiga muvofiq kurs ishi chet tillarining birida bajarilishi mumkin (talabaning o'z hohishiga ko'ra). Chet tilida bajarilgan kurs ishiga davlat tilidagi annotatsiya ilova qilinadi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Kurs ishini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni talabalar fanni o'rganish va kasb-hunar kollejlarida o'tiladigan amaliyotlar davomida to'playdilar. Shuningdek, kurs ishini bajarish yuzasidan tavsiya qilingan adabiyotlar, qo'llanmalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalanadilar.

Kurs ishini hajmi qo'yidagicha tavsiya etiladi:

Yozuv-tushuntirish matni - 30...35 bet (A4 297x 210 mm formatli oq qog'ozda);

Mavzuga oid slaydlar ilova qilinishi mumkin va slaydlar elektron variantda tayyorlanib himoya qilish vaqtida o'qitishning texnik vositalari yordamida namoyish etilishi mumkin.

Kurs ishiga "Kasb ta'limi va pedagogika" kafedrasining professor-o'qituvchilari rahbarlik qiladi.

Kurs ishining tarkibi

Kirish. Bugungi kunda kasb-hunar kollejlarda tayyorlanayotgan transport sohasi bo'yicha kichik mutaxassislar qo'yiladigan talablar, Prezident farmonlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi asosiy vazifalarning ahamiyati, kasb-hunar kollejlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari haqida.(2-3 bet)

1. Fan va mavzuni tavsifini yoritish. Kasb-hunar kollejlarda kichik mutaxassislar tayyorlashda fanning tutgan o'rni, ahamiyati, vazifasi, fanlararo bog'lanishlari. Mavzuning dolzarbligi, xususiyatlari, uni o'qitishning yo'llari, vositalari. Kasb-hunar kollejlardagi o'qitishning tashkiliy shakllari haqida.(5-7 bet).

2. Nazariy dars haqida tushuncha. Nazariy darsning mazmuni, mohiyati, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni haqida.(1-2 bet)

2.1. Nazariy dars o'tish metodikasini ishlab chiqish. Bu bandeda tanlangan mavzu bo'yicha dars rejasi ishlab chiqiladi, nazariy mashg'ulot tarkibi asoslanadi, dars loyihalashtiriladi, mashg'ulotning tarkibiy qismlarini o'qitish metodikasi batafsil yoritiladi.(nazariy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqiladi. 1-ildovada keltirilgan).

3. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar tizimi. (1-2 varaq)

3.1. Laboratoriya va amaliy mashg'ulot o'tish metodikasini ishlab chiqish. Mavzu bo'yicha laboratoriya yoki amaliy mashg'ulot o'tish metodikasi keltiriladi.Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi modeli, mashg'ulotning texnologik xaritasi, instruksion-texnologik xarita ishlab chiqiladi. (7-8 varaq) (2-ildova)

4. Ishlab chiqarish amaliyotining umumiy tavsifi. (1-2 varaq)

4.1. Ishlab chiqarish amaliyotini o'qitish metodikasini ishlab chiqish. By бандда қўйидаги вазифалар ҳал қилинади:

Ishlab chiqarish amaliyotining mazmuni, ishlab chiqarish amaliyotining metodik ta'minoti, yo'riqnomali texnologik xarita, o'quv ustaxonalarida ishlab chiqarish amaliyotini o'qitish metodikasi ishlab chiqiladi. (6-7 varaq) (3-ildova).

6. Xulosa. Bunda bajarilgan ishga qisqacha tavsif beriladi, vazifaning echimi ko'rsatiladi, takliflar, xulosalar va mavzuni o'tish metodikasini maqbullashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

7. Adabiyotlar ro'yxati.

8. Mundarija.

Kurs ishini rasmiylashtirish bo'yicha talablar

Kurs ishining yozuv-tushuntirish qismi berilgan topshiriqqa mos holda ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Unda grafiklar, rasmlar, diagrammalar, sxemalar keltirilishi mumkin.

Tushuntirish qismi qo'lyozma tarzda A4(297x210 mm) formatda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

Kurs ishining yozuv-tushuntirish qismi kamida 30...35 sahifa hajmda amaldagi talablarga asosan bajariladi.

Kurs ishining har bir bo'limi muvofiqlik asoslar, taklif va xulosalar bilan yoritiladi. Kurs ishida, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mu'alliflarning (ilmiy ma'ruza yoki maqolalari, albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Kurs ishining mavzuga oid slaydlari kompyuter "Power Point" dasturi grafikasida tayyorlanib, A4 formatli qog'ozda chop etilishi mumkin.

Kurs ishini himoya qilish

Belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilgan kurs ishi talaba tomonidan kafedradan tayinlangan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar kurs ishini talablar darajasida bajarilganligiga ishonch bildirganidan so'ng himoya qilishga ruxsat beradi. Kafedra mudiri kurs ishini himoyasi bo'yicha komissiya tashkil qiladi. Kurs ishi muallif talaba tomonidan kafedra professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan komissiya oldida himoya qilinadi. Kurs ishi himoyasi uchun har bir talabaga 10...15 minut vaqt beriladi. Keyin talaba qo'shimcha savollarga javob beradi. Kurs ishini baholash komissiyaning qarori bilan qabul qilinadi. Kurs ishi 100 balli reyting tizimi asosida baholandi va 55 balldan (55,0 %) yuqori ball olgan talabalar kurs ishini himoya qilgan deb hisoblanadi.

Mavzu: O`quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari

Ma`ruza mashg`ulotining ta'lim berish texnologiyasi modeli

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 25 - 30 ta
Mashg'ulot shakli	Ma'lumotli, ko`rgazmali – ma`ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	- Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo`nalishlari.</li> <li>- Oilaviy hayot sohasi tarbiya sohasi sifatida</li> <li>- Tarbiya usullari va ularning turlari.</li> <li>- O'z-o zini tarbiyalash o`z-o`zini kamol toptirishning pedagogik- psixologik asoslari.</li> <li>- O`quvchilarning o`z-o`zini tarbiyalashga imkon beradigan omillar, o`z-o`zini tarbiyalash metodlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Tarbiya jarayoni, uning mohiyati, tarbiya usullari va ularning turlari, o`z-oz`ini tarbiyalash usullari, tarbiya tamoyillari va qoidalar haqida tushunchalarni o'quvchilarga tushuntirish va tassavurni shakllantirish.</i>	
Pedagogik vazifalar: Tarbiya jarayoni, uning mohiyati tushuntirilib beriladi; - Tarbiyaning ikki yoqlama xarakterini tushuntirish; Tarbiya, tarbiyaviy ish, o`z-o`zini tarbiyalash haqida tushuncha berish; - Shaxsning shakllanishi va rivojlanishini nazariy asoslash va unga ta'sir etuvchi omillar bilan tanishtirish; - Tarbiyaning jamiyat va inson hayotidagi ijtimoiy ahamiyati haqida haqida ma'lumotlar berish; - Tarbiya tamoyillari va qoidalarini tushuntirib beradi.	O'quv faoliyati natijalari: - Tarbiya jarayoni, uning mohiyati tushuntirilib beradilar; - Tarbiyaning ikki yoqlama xarakterini tushuntirib beradilar; - Tarbiya, tarbiya jarayoni, o'z-o'zini tarbiyalash haqida to'liq ma'lumotlarni ilmiy va amaliy jihatdan yoritib beradilar; - Shaxsning shakllanishi va rivojlanishini nazariy asoslaydi va unga ta'sir etuvchi omillarni (slaylar asosida) tavsiflaydilar; - Tarbiyaning jamiyat va inson hayotidagi ijtimoiy ahamiyati haqida malumotlarni to'liq yoritib beradilar; - Tarbiya tamoyillari va qoidalarini tushuntirib beradilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, bahs-munozara
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O`UM, slaydlar, kompyuter, proektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus jihozlangan ma ruzalar xonasi
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

O`quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari
mavzusidagi ma`ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqich-lari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	<i>Ta'lim beritvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
1 - bosqich Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1 Mavzu nomi proyektor orqali ekranga uza-tiladi. (1 - slayd) 1.2. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalarni bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (1-ilova). 1.4. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar va yozib oladilar talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotlarni tushuntirib beradi; 2.2. Tarbiya jarayoni, uning mohiyati tushuntirilib, mazmunan izohlab beradi, slaydlar asosida ko'rsatib, izohlab beradi (2 - ilova); 2.3. Tarbiyaning ikki yoqlama xarakterini tushuntirish (3 -ilova); 2.4. Tarbiya, tarbiyaviy ish, o'z-o'zini tarbiyalash haqida tushuncha berish; 2.5. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishini nazariy asoslash va unga ta'sir etuvchi omillar bilan tanishtirib, izohlab beruvchi slaydlar namoyishi orqali ma'lumotlar beradi (2-5 slaydlar) 2.6. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni beradi. - Tarbiya deganda nimani tushunasiz? - Tarbiyaning ikki yoqlama xarakterini tushuntiring. - Shaxsning shakllanishi va rivojlanishini nazariy asoslang. 2.7. Tarbiyaning jamiyat va inson hayotidagi ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumotlar berish; 2.8. Tarbiya tamoyillari va qoidalarini tushuntirib beradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar Tinglaydilar, yozadilar Tinglaydilar, zarur tushunchalarni yozib oladilar
3 - bosqich Yakuniy bosqich (10 daqiqai)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Mustaqil ishlash uchun "Tarbiya jarayoni. tarbiya metodlari" mavzusini taqdim etadi va B/BX/B jadvali asosida mazkur mavzuni o'rganib kelish vazifasini beradi. (ilovalar).	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

Mavzu: O`quv –tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari

Reja:

1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo`nalishlari
2. Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida
3. Tarbiya usullari va ularning turlari
4. O`z-o`zini tarbiyalash va o`z-o`zini kamol toptirishning pedagogik-psixologik asoslari
5. O`quvchilarning o`z-o`zini tarbiyalashga imkon beradigan omillar, o`z-o`zini tarbiyalash metodlari



Blis-so'rov savollari

<i>№</i>	<i>Savol</i>	<i>Javob</i>
1.	Tarbiya deganda nimani tushunasiz?	
2.	Tarbiyaning ikki yoqlama xarakterini tushuntiring.	
3.	Shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?	
4.	Tarbiyaning qanday qoidalarini bilasiz?	
5	Oilaviy tarbiyaning mohiyati nimada ?	
6	O`z-o`zini tarbiyalash metodlarini tushuntiring	

Vizual materiallar

4– ilova

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq shakllashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo`lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va sistemali ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni ozaro bog liq boTgan ikki yoqlama faoliyatni pedagog va talaba faoliyatini O`Z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, his-tuyg ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo' lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlarni hosil qilinadi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan tog`ri uyushtirish g oyat muhimdir

Tarbiya jarayoni - toxtovsiz va sistemali davom etadigan jarayon bolib, unga pedagog, tarbiyachi rahnamolik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rtasida ijtimoiy, jamoa, o'rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi.

3- slayd



Tarbiyaning tarkibiy qismlari

- Aqliy tarbiya
- Axloqiy tarbiya
- Jismoniy tarbiya
- Mehnat tarbiyasi
- Estetik tarbiya
- Huquqiy tarbiya
- Ekologik tarbiya
- Iqtisodiy tarbiya



4- slayd

Tarbiya usullari va ularni turlari



- 1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
- 2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
- 3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
- 4. Rag'batlantirish usuli
- 5. Qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar)

Tarbiya qoidalari



- *Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi*
- *Tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi*
- *Tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi*
- *Tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi*
- *Tarbiyada o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi*
- *Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, tizimliliigi hamda birligi.*

Oila – voyaga yetgan ikki jinsning sevish, ardoqlash, hurmat qilish asosida ixtiyoriy ravshda qalb xoxishi bilan tuzilgan qonuniy ittifoqidir.

Oilaning maqsadi – farzandli bo`lish hamda tabiat va jamiyatningdavomiyligini ta`minlash.

Oilaning vazifasi – oilani ma`naviy va iqtisodiy jihatdan ta`minlash hamdajamiyatga sog`lom, aqilli har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash.

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari – farzandiga chiroyli ism qo`yich, savodini chiqarish, bilim berish, o`qitish, hunar o`rgatish, uylantirish, turmushga chiqarish, uyli-joyli qilish, merosini adolatli taqsimlash.

Farzandning ota-ona oldidagi burchlari:

- ❖ Ota-onani pand nasihatlariga quloq solish;
- ❖ Ularga doim yordam berish, mehribon, e`tiborli bo`lish;
- ❖ Har bir farzand o`z singil va ukalariga mehribon yo`lboshchi, odob-axloqda, ishda, ilm-hunar o`rganishda o`rnak bo`lish;
- ❖ Oilaga berayotgan ma`naviy va iqtisodiy yordamini minnat qilmaslik;
- ❖ Tug`ilgan kun, bayram va hayyit kunlarida doim yo`qlab turish;
- ❖ Keksa ota-onalarga alohida g`amxo`rlik qilish, shirin muomilada bo`lish;
- ❖ Vaqti-soati yetib bandalik bajo keltirsalar, izzat-ikrom bilan oxirgi manzilga kuzatish, ma`rakalarini kamtarona qarindosh-urug`lar va eng yaqin odamlar bilan o`tkazish.

Masalalarni tahlil qiling**1-masala:**

O`ziga to`q otaxonning uch qiz, bir o`g`li bor edi. U kishi qariganida mehrni shu yagona o`g`illaridan kutgan edi. Ammo kelini noboproq chiqib, ular otaga qarashmadi. Ikki katta qizi ham o`z oilalari bilan bo`lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga kenja qizi yaradi. Oq yuvib, oq taradi, ko`nglini ko`tarishga harakat qildi. Otaxon olamdan o`tganlaridan keyin, kenja qizdan tashqari hamma meros talashib, yettisi o`tmasdan janjallashishdi.

2-masala:

Besh og`a-inining uchinchisi biznes qilaman deb, katta qarzga botib qoldi. Ahvoli tang bo`ljan uka akalaridan qarz so`radi. O`ziga to`q akalari qarzni qaytarib beradimi, yo`qmi deb, unga qarz berishmadi. Uka nima qilishini bilmay, o`zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj bir qaltis ishga qo`l urib, qamalib ketdi. Mahallada: “Ukamning bolalarini biz boqayapmiz, hech narsaga muhtojlik joyi yo`q”, - deb ko`kragiga urib yurgan akalarini qanday baholaysiz?

Tushuntiriladigan matn mazmuni:

Yoshlarni oilada va maktabda tarbiyalash - Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Oilada shaxsning ijtimoiy-qimmatli fazilatlarini o'sa boshlaydi. O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya mazmuni tashkil etilishiga oid pedagogik omillar mavjudki, ularni hisobga olishga majburlarmiz.

- Bola maktabga qadam qo'yganda yaxshi va yomon narsalar haqida o'z tasavvuriga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog'i kerak. Shuning uchun ham muallim o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi darkor. Tarbiyaning samaradorligi ko'pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o'qituvchi bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, muomalasiga katta e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarni mustahkamlashi yoki illatlarni yo'qotishi lozim bo'ladi. Maktabda bolaga chuqur bilim, ta'lim-tarbiya mafkuraviy g'oya, o'zbekona milliy qadriyatlar, xalol mehnat, biror bir kasb-hunarni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratishdek mas'ul vazifani zamonaviy talab darajasida amalga oshirish lozim. Ularga ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-metodik dasturlar asosida bilim berish, o'quv jarayonlarini jahon andozalariga mos didaktik jihatdan ta'minlab, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlil qilish kerak.

- O'qituvchi pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, xulqiga o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, ularni umuminsoniy va milliy axloq mezonlarini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shu boisdan ham o'qituvchi bola uchun bir umr idel, ibrat va namuna bo'lib qolishi keark. Afsuski, hamma o'qituvchilar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. Kasbiy salohiyati yetarli emas, axloqiy fazilatlarida nuqsonli, o'zining dag'al muomalasi bilan yoshlarning ko'nglini o'qishdan sovitib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar.

- Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lgan axloqiy xislatlar: xushmuoamalak, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amho'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat kabi ijobiy fazilatlardan namuna oladilar.

- Pedagog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, tarbiya samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o'zining barcha ta'sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltirsa;

2. O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil etsa;

3. Ta'lim maskanlaridagi tarbiyaviy jarayonga tashkilotchi ota-onalar uyushtirilsa;

4. O'qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o'quv yillarida davom ettirilsa. Demak, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi bolalar tarbiyasida asosiy hal qiluvchi bo'g'in bo'lib, bunda o'qituvchi-tarbiyachilarning bir maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlari muammoni ijobiy hal etuvchi omil hisoblanadi.

o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashi xususiyatlari.

- O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bolani yoshligidan o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rgatish, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishi, o'zining xulq-atvoriga talabchan bo'lishi, o'ziga chetdan turib xolisona baho berishi kerak. O'z-o'zini tarbiyalash bolaning doimiy ishi bo'lmog'i va uzluksiz davom etmog'i zarur.

- Maktabda o'qish yillari inson hayotida axloqiy izlanishlar, ijobiy va salbiy bolalarni o'z-o'zini tarbiyalashga da'vat etishning samarali bo'lishiga bevosita muallim rahbarlik qiladi. O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash tajribasiga ega bo'lmagan kishi boshqalarga bu ishni o'rgata olmaydi.

- Inson insonni va insoniylikni qanchalik ko'p tushunsa, shuncha ko'p darajada o'z-o'zining narsa va hodisalarga to'g'ri baho bera olish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda tarbiyachisi bo'lib etishadi. O'z-o'zini tarbiyalashga undovchi tarbiya ishonchim komilki - degan edi mohir pedagog V.A.Suxomlinskiy - bu hahiqiy tarbiyadir.

- O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'zi ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchini tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O'z-o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqil faoliyat ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'lidi.

Nazorat savollari:

1. Tarbiya jarayonining mohiyatini tushuntiring.
2. Tarbiyaning samaradorligi nimalarga bog'liq?
3. Tarbiyaning qanday usullarini bilasiz?
4. O'z-o'zini tarbiyalash haqida tushuncha bering.
5. Aqliy mehnatning tarbiyaga ta'sirini tushuntiring.
6. Oilaviy hayot tarbiyasi tushunchasini ta'riflang.

Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ

*B/BX/B jadvali - Bilaman/
Bilishni xohlayman/ Bilib
oldim. Mavzu, matn, bo`lim
bo`yicha izlanuvchanlikni
olib borish imkonini beradi.
Tizimli fikrlash, tuzilmaga
keltirish, tahlil qilish
ko`nikmalarini
rivojlantiradi.*

*Jadvalni tuzish qoidasi bilan
tanishadilar. Alohida kichik
guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar*

*"Mavzu bo`yicha nimalarni bilasiz?" va
"Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga
javob beradilar (oldindagi ish uchun
yo`naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va
2 bo`limlarini to`ldiradilar*

Ma`ruzani tinglaydilar, mustaqil o`qiydilar

*Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning
uch bo`limini to`ldiradilar*

B/BX/B JADVALI

BILAMAN	BILISHNI XOXLAYMAN	BILIB OLDIM

MAVZU: PEDAGOGIK MULOQOT.**Amaliy mashg'ulot ta'lim texnologiyasining modeli**

<i>Vaqt: 2 soat</i>	Talabalar soni: 20 ta
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy mashg'uloti
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Pedagogik muloqot haqida tushuncha 2. Muloqot turlari, funksiyalari va tuzilishi. 3. Shaxsning nutq faoliyati. 4. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar. 5. Pedagogik mahoratning mohiyati.
Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari.</i>
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; - mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; - kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi; - mustaqil filrlashga o'rgatish; - mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	- Muloqot va uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati haqida tushunchalarga ega bo'ladilar; - Muloqot turlari, funksiyalari va tuzilishini tushuntirib bera oadilar; - Shaxsning nutq faoliyati, shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rnini tushuntirib bera oladilar - Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar, pedagogik mahoratning mohiyati haqida tushunchalarga ega bo'ladilar
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Tushuntirish, aqliy xujum, zigzag texnikasi, suhbat
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, format qog'ozlar, skotch, (qog'ozdan), ekspert varaqlari
<i>O'qitish shakllari</i>	Frontal, juftlikda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1.Kirish bosqichi (15minut)	1.Tashkiliy qism,motivatsiya. 1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini eslatadi. Amaliy mashg'uloti noan'anaviy tarzda, ya'ni talabalar "o'zi o'rganib - o'zgalarga o'rgatish" tamoyiliga asoslanib o'tilishini uqtiradi (3-ilova). Mashg'ulotning o'tkazilish tartibini tushuntiradi. 1.2. Talabalarni va guruhlar faoliyatini baholash mezonlarini e'lon qiladi (4-ilova).	Diqqat bilan tinglaydilar. Eslab qoladilar
II. Asosiy bosqich (50 minut)	2.1.Talabalarni faollashtirish maqsadida aqliy hujumdan foydalanadi. Quyidagi savolni beradi: Muloqotning qanday turlari va funksiyalarini bilasiz? 2.2.Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. 2.3. Har bir guruhga ekspert varaqlarini tarqatadi (5-ilova). Vazifani tushuntiradi. Guruhlar ishini kuzatadi, maslahatlar beradi. 2.4.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Reglamentni eslatadi. 2.5. Javoblarni to'ldiradi, xatolarni tuzatadi, kamchiliklarni ko'rsatib o'tadi. Guruhlar bir-birini baholashlarini aytadi. 2.6. «Konvert» texnikasidan foydalangan holda har bir juftlikka navbat bilan konvertlarda topshiriqlarni tarqatadi (5-ilova). Vazifani bajarish tartibini tushuntiradi. Talabalarni kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. Ishlash reglamentini eslatadi va unga albatta rioya qilish kerakligini uqtiradi. 2.7. Faoliyat natijalarini taqdimoti boshlanishini aytadi. Javoblarni to'ldiradi, tuzatishlar kiritadi	Tinglaydilar,yozib oladilar Ixtiyoriy ravishda guruhlariga bo'linadilar. Guruhlarda ishlashadi Taqdimot qiladilar Har bir guruhdan uchtdan a'zo chiqib ishlarini taqdim qiladi. Savollarga javob beradi. Topshiriqni ko'rib chiqib, savollarga javob beradi. Ma'lumotni sxemalar, chizmalar va jadvallar tarzida tayyorlaydi. Juftliklar chiqib bajargan ishini taqdim qiladi, berilgan savollarga javob beradi
III. Yakuniy bosqich (15 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha qisqa xulosalar qiladi, yakun yasaydi. Talabalar faol ishtirokini alohida qayd qilib, baholarini e'lon qiladi.	Eshitadi. Tinglaydilar
	3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: o'tilgan mavzu bo'yicha BBXB jadvalini to'ldirib kelish .	Vazifani yozadilar.

Guruhlar faoliyatining reglamenti:

Ma'lumotni dastlabki muhokama qilish – 5 daqiqa

Joylarini almashtirib fikr almashish - 5 daqiqa

Dastlabki joyga qaytib, taqdimotga tayyorlanish -5 daqiqa

Taqdimot uchun – 5 daqiqa

Savol – javob uchun – 2 daqiqa

Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin bayon eting.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari

<i>Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari</i>	<i>Guruhlar</i>				
	1	2	3	4	5
1-topshiriq: (1,5 ball)					
- savol yoritib berildi (0,5 ball)					
- reglamentga e'tibor qaratildi (0,5 ball)					
- guruh faol qatnashdi (0,5 ball)					
2-topshiriq: (1,5 ball)					
- muammo aniq echimini topdi (0,5 ball)					
- mantiqan to'g'ri xulosa chiqarildi (0,5 ball)					
- misollar bilan umumlashtirildi (0,5 ball)					
Jami: (3,0 ball)					

Ekspert varagi №1

1. Muloqotning qanday turlarini bilasiz?
2. Shaxs rivojlanishida muloqotning ahamiyatini tushuntiring?

Ekspert varagi №2

1. Bilimlarni o'zlashtirishda muloqotning ahamiyatini aytib bering?
2. O'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini tavsiflang

Ekspert varagi №3

1. Muloqotning qanday funksiyalarini bilasiz?
2. Muloqot shaxs shakllanishining asosiy omili sifatida?

Ekspert varagi №4

1. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotning xususiyatlarini taxlil qiling?
2. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarni aytib bering ?

Ekspert varagi №5

1. Pedagogik muloqotning ahamiyatini tavsiflang
2. Pedagogik mahoratning mohiyatini va tuzilishini aytib bering?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«Kasb ta'limi» fakulteti

«Kasb ta'limi va pedagogika» kafedrası

«Kasb ta'limi metodikasi » fanidan

K U R S I S H I

Mavzu: _____

Bajardi: _____ (imzo)
(f.i.sh.)

Rahbar: _____
(imzo) (ilmiy unvoni f.i.sh.)

QARSHI – 2013 y.

«TASDIQLAYMAN»

_____ kaf. mudiri

(imzo, f.i.sh)

«_____» _____ 2013__y

T O P S H I R I Q

Fanning nomi _____

Talaba _____ Guruh _____

1. Kurs ishi mavzusi _____

2. Kurs ishi uchun boshlang`ich ma`lumotlar _____

3. Qo`llanmalar _____

4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo`lgan savollar ro`yxati)

5. Chizmalar ro`yxati (bajarilishi lozim bo`lgan chizma va grafiklar):

Rahbar _____

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

- 1.. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq», 1997 y.
- 2.. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: 1999 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonuni:. T.: «Sharq», 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T.: «Sharq», 1997.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: «O'qituvchi», 1993 y.
6. G'ulomov S. tahriri ostida. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: «Sharq», 2001 y.
9. Mavlonova R, To'raeva O., Pedagogika. Darslik. –T.: «O'qituvchi», 2001.
10. Munavvarov A.Q. tahriri ostida. Pedagogika. T: «O'qituvchi», 1996 y.
12. Djumaboeva F. Talabalarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. –T.: «O'qituvchi», 2002 y.
13. B.L. Farberman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan» 1999 y.
14. K.Mirsaidov., O'.Xidirov., R.Choriev. Ishlab chiqarish ta'limi. – T.: «O'qituvchi», 2002 y.
15. N.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003y.
16. Q.T.Olimov., L.T.Uzoqova., E.Z.Halilov va boshq. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T., «Fan», 2004 y.
17. B.L.Farberman va boshq. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: 2002 y.
18. Iminov T. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjat. O'quv qo'llanma. –T.,1998 y.
19. Qurbonov O. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lim to'g'risidagi qarorlari. O'quv qo'llanma. –T., 1998 y.
22. [http:// www . inter. pedagogika ru.](http://www.inter.pedagogika.ru)
23. [www . school. edu. ru.](http://www.school.edu.ru)
24. [www. pedagog. uz.](http://www.pedagog.uz)

MUNDARIJA

1. Kirish	3
2. Kurs ishini bajarishning maqsad va vazifalari	5
3. Kurs ishiga qo'yiladigan talablar	5
4. Kurs ishining tarkibi.....	7
5. Kurs ishini rasmiylashtirish bo'yicha talablar.....	8
6. Kurs ishini himoya qilish.....	8
7. Ilovalar.....	9
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	26
9. Mundarija.....	27

